




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

15	Dilnavoz ASATULLAYEVA, Buxoro shevalarida uchrovchi morfonologik o‘zgarishlar va ularning tahlili, so‘z asosida yuz beradigan o‘zgarishlar	332
16	Dinara ALLAMURATOVA, Qaraqalpaq xaliq ja‘niltpashlari tilinde sinekdoxalar	335
17	Navruza MAMAJONOVA, Topishmoqlarning kognitiv-semantik modeli	337
18	Nodir MUXAMMADIYEV, Qashqadaryo viloyati o‘zbek shevalarida o‘zlashma birliklarning uslubiy va sinonimik xususiyatlari	340
19	Iroda UMARALIYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	347
20	Umida USMONOVA, Eskirgan atov birliklarning yangi o‘zlashma va neologizmlar bilan almashinuvi	351
21	Aziza JUMABOYEVA, Ijobiy istak birliklarining uslubiy xususiyatlari	356
22	Doniyor TOJIBOYEV, Hoji Muin publitsistikasida qo‘llangan sifatlashlarning funksional – uslubiy imkoniyatlari	360
23	Maftuna AHMADJONOVA, Zamonga oid leksemalarning tarixiy-semantik ko‘chishi: bugun leksemasi misolida	363
24	Gavhar TOSHEMIROVA, Po‘lkan shoir ijrosidagi “Gulnor pari” dostonining morfologik xususiyatlari (bulung‘ur dostonchilik maktabi misolida)	366
25	Maxfuza OZOTBOYEVA, Diskursiv shaxs va uning badiiy matndagi kommunikativ vazifalari	370
26	Aziza ABDUSAMATOVA, Turkiyadagi etnik o‘zbeklar shevasi o‘rganilishining dolzarbligi	373

4-O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI VA O‘RGANILISH TARIXI

1	Shomirza TURDIMOV, Qo‘shiqlarda an‘anaviy qaytariqlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CCZQ6807	377
2	Tohir SHERMURODOV, “Alpomish” dostonida islomiy-ma’rifiy tafakkur ifodasi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/VCOPI093	381
3	Ilhom SAYITQULOV, O‘zbek xalq eposida jang tasvirlarining badiiy funksiyasi,	385
4	Iroda ERNAZAROVA, Nigora TO‘XTAQULOVA, Xalq qo‘shiqlari matnida “ko‘z” bilan bog‘liq ifodalarning badiiy tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LGVB6694	388
5	Kamoliddin EGAMQULOV, Azim shoir ijodida an‘ana (Chiroqchi dostonchilik maktabi) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/HVUU6964	391
6	Ilhomjon DARMONOV, O‘zbek shomon afsonalarining obrazlar tizimi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LNCQ8085	395

O'ZBEK XALQ DOSTONLARI MATNINI LINGVOSTATISTIK TADQIQ ETISH ("BALOGARDON" DOSTONI MISOLIDA)

LINGUISTOCISTICAL RESEARCH OF THE TEXT OF UZBEK FOLK EPISTLES (ON THE EXAMPLE OF THE EPISTLE "BALOGARDON")

Iroda UMARALIYEVA,

JDPU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TTIU5903

Annotation. *This article examines the linguistic-statistical analysis of Uzbek folk epic texts. A digital corpus of epics performed by Fozil Yuldosh ogli was created, and the frequency, variability, and functional features of lexical units were analyzed. Using computer technologies, microcontext analysis was conducted. The results indicate a high proportion of hapax legomena and significant dialectal and orthographic variation. The study highlights the importance of linguistic-statistical methods in the analysis of Uzbek folklore texts.*

Key words: *linguostatistics, folk epics, corpus linguistics, frequency analysis, microcontext, lexicography.*

Kirish. Axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etayotgan XXI asrda tilshunoslik fanining metodologik asoslari ham yangilanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, balki katta hajmdagi matnlarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, lingvostatistika tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda.

O'zbek kompyuter lingvistikasining yirik tadqiqotchilaridan biri prof. A.Po'latov «Axborot asri» deb nom olgan XXI asrda axborot ustida tezlik bilan ishlashning va samaradorlikning birdan-bir yo'li kompyuterdan foydalanish ekanligini va har bir soha o'z faoliyatini kompyuterga moslashtirishi zarurligini ta'kidlagan edi. [1, 81-82-b] Sohaning yana bir taniqli olimi S.Rizaev esa «Hozirgi fan va texnikaning barcha sohalarida globallashuv davri jarayonida ilg'or pedagogik axborot texnologiyalari avj olayotgan sharoitda zamonaviy kompyuter texnikasidan keng va samarali foydalanilmoqda. Barcha aniq fanlar qatorida ijtimoiy gumanitar fanlarida ham (xususan, o'zbek tilshunosligida ham), ayniqsa, uning struktural, amaliy va matematik lingvistika sohasidagi nazariy va amaliy muammolarni zudlik bilan oqilona va tez hal etishda kompyuterlar asqotmoqda. Bu esa ham ish kuchi jihatidan, ham vaqt jihatidan ulkan imkoniyatlar yaratmoqda», deydi. [2, 91-b] Bu esa tilshunoslikda aniq, tekshiriladigan va ishonchli natijalarga erishish uchun statistik usullarni qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

Mazkur ishning maqsadi — o'zbek xalq dostonlari tili va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda lingvostatistik metod va usullarning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Metodlar. Tadqiqotda lingvostatistik, korpus va tavsifiy-tahliliy usullardan foydalanildi. Material sifatida Fozil Yo'ldosh o'g'liga mansub "Balogardon" dostoni (1986), Buyuk Karimov tomonidan yozib olingan, Buyuk Karimov va Tilovqul Ashurov tomonida nashrga tayyorlangan variant tanlab olindi.

Matnni qayta ishlash tamoyili. Matnlar hech qanday tahrirsiz kompyuter xotirasiga kiritildi. Asosiy prinsip sifatida “harfiy zanjir” usuli qo‘llanildi, ya’ni matndagi ikki bo‘shliq orasidagi birlik alohida so‘z sifatida qabul qilindi. Bu yondashuv matnning asl holatini saqlash va ob’ektiv tahlil qilish imkonini berdi.

Statistik tahlil. Tilshunoslikda statistik tahlil — bu til hodisalarini (so‘zlar, tovushlar, grammatik shakllar va boshqalar) sonli ma’lumotlar asosida o‘rganish usulidir. Ya’ni, til elementlari qanday chastotada uchraydi, ular o‘rtasida qanday bog‘lanishlar bor — bular matematik va statistik metodlar orqali aniqlanadi.

Oddiyroq qilib aytganda, bu yondashuv tilni “raqamlar orqali” tahlil qilishdir. Asosiy jihatlari:

Chastota tahlili – qaysi so‘z yoki tovush qanchalik ko‘p ishlatilishini aniqlash

Taqqoslash – turli matnlar yoki tillar orasidagi farqlarni son jihatdan ko‘rsatish

Korrelyatsiya – til birliklari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash

Model tuzish – til hodisalarini bashorat qilish uchun statistik modellar yaratish

Statistik tahlildan tilshunoslikda quyidagi o‘rinlarda foydalaniladi:

- ❖ Matnlarni avtomatik tahlil qilish (masalan, tarjima dasturlarida)
- ❖ Muallif uslubini aniqlash
- ❖ Til o‘rganish jarayonlarini tadqiq qilish
- ❖ Korpus lingvistikasida

Bu usul ayniqsa zamonaviy yo‘nalish — korpus lingvistikasi va kompyuter lingvistikasi da juda muhim hisoblanadi. Bu haqda A.Ibrohimov quyidagilarni aytgan edi: “Statistik usulni tilshunoslikda qo‘llash shunchaki maqsad emas, balki tilning nihoyatda murakkab tuzilishi, uning amal qilish sirlarini bilishda an’anaviy usul bilan birgalikda bir vositadir. Aniqlik ilmiy ishning talablaridan biridir. Lekin an’anaviy tilshunoslikning eng katta kamchiligi unda aniqlikning yetishmasligi, ko‘pchilik natijalarning taxminiy bo‘lishidir. Mana shuning uchun ham tilshunoslar statistikaga asoslangan usulga murojaat qila boshladilar”. [3, 4-b]

So‘zlarning qo‘llanish chastotasi quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$Pa = m / n$$

bu yerda:

m — muayyan birlikning uchrash soni,

n — matndagi umumiy so‘zlar soni.

Bunda “Balogardon” dostoni konteksidan 1500 dan ziyod so‘zdan iborat alfavitli-chastotali lug‘at tuzildi. Masalan:

birovning 3 11(1) 35(1) 78(1)

biror 7 5(1) 13(1) 20(1) 35(1) 45(1) 70(1) 94(1)

bitgan 1 28(1)

bitdi 2 12(1) 38(1)

biti 2 29(2)

bitim 1 29(1)

bitingni 1 29(1)

bitini 2 29(2)

bitining 1 29(1)

bitir 1 51(1)

bitirar 1 20

bolamdir 1 93(1)

bolammi 1 93(1)

bolamning 1 63(1)

Yuqoridagi lug‘at tahlilida dastlab so‘z shaklni, so‘z shakldan keyingi raqam – so‘z shaklning doston matnida umumiy tarzda necha marta qo‘llanganligini, keyingi raqam - doston sahifasining raqamini, qavs ichidagi raqamlar esa sahifada qo‘llanish darajasini ifodalaydi.

Shuningdek, ehtimollar nazariyasi (Laplas modeli) va ishonchlik intervali kabi matematik usullardan ham foydalanildi.

Mikromatn tahlili. Kompyuter yordamida muayyan so‘z ishtirok etgan barcha kontekstlar ajratib olindi va ular asosida semantik hamda stilistik tahlil amalga oshirildi. Bunda “Balogardon” dostonida keltirilgan 2158 ta so‘zdan iborat so‘zlik lug‘at tuzildi. Unda so‘zlar quyidagicha tartiblandi A

1. abzalab-choqlab
2. abzal
3. abzallamoq
4. Avaz
5. Avazjon
6. Avazxon
7. avaylamoq
8. avval
9. avval-avval
10. avzoyi
11. avlod
12. avon
13. agar
14. adashmoq
15. ado

Natijalar. Tadqiqot natijalari quyidagi muhim jihatlarni aniqlash imkonini berdi:

Leksik tarkib xususiyatlari. Xalq dostonlari matnida bir marta qo‘llangan so‘zlar ulushi yuqori ekanligi kuzatildi. Bir so‘zning turli fonetik va morfologik variantlari mavjudligi aniqlandi. Dialektal elementlar va og‘zaki nutq xususiyatlari saqlangan.

Matn variantligi muammosi. Dostonlarni turli shaxslar tomonidan yozib olinganligi sababli:

- orfografik noaniqliklar,
- turli yozilish shakllari,
- transkripsiyaning bir xil emasligi

kabi holatlar qayd etildi.

Mikromatn tahlili natijalari. Muayyan so‘zlarning turli kontekstlarda qo‘llanishi ularning:

- semantik qirralarini,
- stilistik funksiyasini,
- poetik vazifasini chuqurroq anglash imkonini berdi.

Muhokama. Olingan natijalar lingvostatistik metodning an‘anaviy tilshunoslikni to‘ldiruvchi muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Aniqlik va ob‘ektivlik nuqtai nazaridan statistik tahlil an‘anaviy usullarga nisbatan ustunlikka ega.

Biroq xalq dostonlari matnidagi o‘ziga xosliklar — ayniqsa, variantlik va orfografik noaniqliklar — tahlil jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli matnni sun‘iy ravishda tahrir qilish emas, balki uning barcha variantlarini saqlagan holda tahlil qilish ilmiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalari:

- katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash,
- so'z chastotalarini aniqlash,
- mikromatnlar bilan ishlash

imkoniyatlari orqali til tadqiqotlarida yangi bosqichni boshlab bermoqda.

Xulosa. Lingvostatistik metod va usullar o'zbek xalq dostonlari tili va uslubiy xususiyatlarini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- ❖ Kompyuter texnologiyalari til tadqiqotlarining samaradorligini oshiradi.
- ❖ Lingvostatistik tahlil natijalarning aniqligi va ishonchligini ta'minlaydi.
- ❖ Xalq dostonlari matnida variantlik yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Elektron korpuslar va avtomatik tahlil dasturlarini yaratish kelgusidagi muhim vazifalardan biridir. Shu tariqa, lingvostatistika o'zbek folklor matnlarini chuqur va kompleks o'rganishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пўлатов А. Ўзбек компютер лингвистикаси муаммолари ва уларни ечиш йўллари / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2008, 81-82 б.
2. Ризаев С. Ўзбек тили машина фондининг яратилишига доир / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. IV. – Тошкент: ЎзМУ нашри, 2008, 91 б.
3. Иброҳимов А. Бобур «Девон»и тилидаги Ўзлашма лексика.- Тошкент: ТДШИ, 2006, 4-бет.
4. Фозил Йўлдош ўғли. Балогардон достони / Б.Каримов, Т.Ашуров. – Тошкент, 1986.
5. Абдурахмонова М. Мирза Ғолиб ғазалиётининг жомеъ луғати. // Шарқшунослик. 2004., – №1.
6. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, I том. – Т.: Фан, 1983; II том. – Т.: Фан, 1983. ; III том. – Т.: Фан, 1984; IV том. – Т.: Фан, 1985.
7. Арзикулов Ҳ., Хожаёрова С. Инсон-компютер-инсон мулоқот тизимида тил ва нутқ нисбати // Хорижий филология, 2004, 2-сон.
8. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
9. Боровков А.К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит (на основе русской графики) / Известия АН УзССР. – Т., 1940.
10. Киссен И.А. Некоторые данные о частотности слов в современной узбекской художественной прозе / Научные труды ТашГУ. Новая серия, вып. 247. Иранская, тюркская, арабская филология. Лингвостатистика. – Т., 1964.